

Ona yurti - oltin beshig

# TONG yulduzi

№ 37  
(66474)

2004 yil  
13 sentabr - 19 sentabr

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

## TINCHLIK BERING BIZLARGA!

Xalqimizda «Ot o'rini toy bosar» degan ibratli maqol bor. Bobojonu buvjonlarining duolarini olib voyaga yetayotgan jajjigina Islombekni xuddi shunday gijinglagan toyga qiyoslash mumkin. U biyrongina so'zlaydi, juda bilag'on. Ko'zlari chaqna, atrofqa quvonch bilan nazar tashlaydi. Qushlarni, kapalaklarni tilini bilsam, ular bilan suhbat qursam, deydi. Nega shamol esadi, quyosh qayerda uxlaydi, yulduzlar osmonga qanday chiqib olgan kabi adoqsiz savollar bilan dadajoni Shuhratbek akani holi-joniga qo'y may so'ragani so'ragan. Ba'zida daraxtlarning shitirlagan

yaproqlariga qo'l cho'zib qoladi. Qo'llari yetmagach, ularga qarab: «Ozgina shoshmay turinglar, hali zamon bo'ylarim o'sib sizlarga yetib olaman. Xavotirlanmanglar, men daraxtlarning shoxlarini sindirib, yaproqlarini uzib tashlaydigan bolalar xilidan emasman, faqatgina yashil barglarni silab erkalagim keladi. Daraxtlar qancha yayrab o'sishsa, bizga shuncha shirin-shakar mevalar beradi»,- deydi.


Unga katta bo'lganingizda kim bo'lasiz, deb savol bersangiz, hech ikkilanmasdan, ona farg'onamga sodiq, Islombek degan inson bo'laman, deya javob beradi.



*Nasling ulug' isming kabi jajji bolajon,  
Yayrab-quvna o'sishingchun minglar berur jon.  
Sen Temurtar avlodidan, yorug' peshonang,  
Charaqlagay baxt nuridan oltin kashonang.*

Nigohlari ko'zmunchiq kabi charaqlab turgan Islombekka qarab shunday degimiz keladi: Orzulari yuksaklarda qanot qoqayotgan, obod yurtimning ozod bolasi, kelajakda albatta komil inson bo'lib voyaga yetgin. Vatanning ertasi sening qo'lingda, deymiz. Buning uchun yurt tinch bo'lishi kerakligini yaxshi anglaymiz. Otalar bag'rida sho'x-shodon bolalar o'sishi uchun TINCHLIK kerak.

Elmira OTAMURODOVA.



## NOMING O'CHSIN, TERROR!

1-sentabr kuni qo'shaloq bayramimizni nishonladik, o'yin-kulgu qildik, raqsga tushdik. Lekin bu kun maktabini sog'inib, uning bag'riga talpingan hamma bolajonlar uchun ham quvonchli bo'ldi, deyolmaymiz. Beslanlik tengdoshlarimizni xuddi shu kuni mudhish voqealar kutib turgan edi. Aytishlaricha, maktabga bostirib kirgan qurolli kishilarni ko'rib, bolalar ham, kattalar ham biror sahnalashtirilgan tomosha ko'rsatishayotgan bo'lsa kerak, deb o'ylashgan ekan...

Afsuski, bu tomosha emas, achchiq haqiqat bo'lib chiqdi. Uch kun davomida qonxo'r terrorchilar qo'lida bo'lgan bolalarning, ularga hech qanday yordam berolmasligidan o'z yog'iga o'zi qovurilgan ota-onalarning holatini so'z bilan tasvirlash qiyin.

-Dunyodagi eng yirtqich hayvonlarni ham qo'lga o'rgatib, o'z izniga bo'ysundira olayotgan insonlarning o'zlari shu daraja vahshiylikka borishsa-ya, deya yig'lab yubordilar oyim...

Ularning aytishlaricha, terrorchilar uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q ekan. Ular chegara, hududni bilmas ekanlar. Shunday ekan, bunday ko'ngilsiz voqealar bizning yurtimizda ham bo'lmasligiga kim kafolat bera oladi? Demak, har doimgidan ham ziyatroq, ehtiyotkorroq bo'lishimiz, o'z uyimizni, mahallamizni, maktabimizni o'zimiz asrashimiz kerak!

Iroda JALILOVA,  
Toshkentdagi

131 - maktabning 5 - «V» sinf o'quvchisi.

## YER YUZIDAN YORUG'LIK KETMAS

Shimoliy Osetiyaning Beslan tumanidagi I-maktabning yovuz terrorchilar tomonidan bosib olinishi, maktab bag'riga yo'l olgan go'daklarning qiynoqqa solinishi ko'z ko'rib, quloq eshitmagan dahshatli voqea bo'ldi. O'quvchilar, ularning ota-onalari, ustozlari - salkam 1000 ga yaqin kishi bosqinchilarning aybsiz tutqunlariga aylanishdi. Dili qora kimsalar g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun hali hayot degan buyuk ne'matning mevalarini tatib ulgurmagani 250 dan ziyod norasidalarining umrlariga zomin bo'lishdi. Maktab degan muqaddas dargohda nonday aziz kitob o'qilishi o'rniga qon to'kilishi ezgu niyatli insonlarni larzaga soladi. Dahshat qotib qolgan nigohlarni oynayi jahon orqali ko'rar ekanman, ko'zlarimga yosh to'ldi. Axir bu jajji qizaloqlar, murg'ak bolakaylar, xuddi mening, sizning, singlingiz yoki ukangiz kabi yoshda edi-da. Butun dunyo Beslan maktabining hafok bo'lgan o'quvchilari oilalariga hamdardlik bildirib, omon qolganlarga yordam qo'lini cho'zmoqda. Yaradorlar, yordamga muhtojlar zudlik bilan shifoxonalarga yotqizilib davolanmoqda. Qora kuchlar qanchalik urinmasinlar, yer yuzidan yorug'likni supurib tashlab bo'lmaydi.

Nuriddin HAYDAROV,  
O'zMU qoshidagi

S.Rahimov akademik litseyining 302-guruh talabasi.

## BOLALARNING ISTAGI!

Yangi o'quv yilining birinchi kunida maktabga borganimizda qalbimizda sog'inchdan, shodlikdan bo'lak tuyg'u yo'q edi. Lekin Shimoliy Osetiyaning Beslan shahrida bo'lib o'tgan dahshatli voqealar barchamizni sergaklikka chorladi. Birinchi darsimiz mavzusi ham aynan shu voqealarga bag'ishlandi. Ustozimiz Matluba opa Abdurazzoqova bizga terrorchilar tomonidan sodir etilgan xunrezliklarning asl mohiyatini batafsil so'zlab berdilar. Maktab ham bizning ikkinchi uyimiz ekanligini, hech bir narsaga befarq bo'lmasligimiz tozligini uqtirdilar. Ustozimizning hikoyalari tinglab, terrorchilarga la'natlar o'qigan bo'lsak, kuni kecha oynayi jahon orqali namoyish etilgan Beslan voqealarini kuzatib, ularga bo'lgan nafratimiz yanada ortdi. Mitigina qalbimiz bilan yurtimizdagi tinchlik, osoyishtalikni teranroq his qildik. Uni ko'z qorachig'imizdek avaylab-asrashga so'z berdik.

Yer yuzida tinchlik bo'lsin, terrorchilar yo'q bo'lib ketsin! Dunyodagi hamma bolalarning istagi shu!

Dilrabo DO'STQOBILOVA,  
Toshkentdagi

118 - maktabning 7 - «A» sinf o'quvchisi.



Yodimda bor, maktabda o'qib yurgan o'rgata olmadim. Shunda chapaqaylik kezarimda bir sinfdoshimiz chapaqay biron-bir xastalik, nuqson emasmikan,

## BOSHQARUV MARKAZI QAY TOMONDA?

edi. Chapaqay bo'lgani uchun u aybdordek, o'qituvchimizdan doimo dakki eshitardi. Ustozning ko'zini shamg'alat qilib, ruchkani chap qo'lga olib yozaverardi. Hatto bir kuni shu qilmishi sabab kaltak ham yeb olgandi. Bolaligidan hamma yumushni chap qo'lida bajarishga ko'nikib qolgan bola sabab bu juda qiyin edi. Biz chap qo'limizda yozishga qanchalik urinsakda, biror natija chiqmaganidek, u ham o'ng qo'li bilan juda qiynalib, xunuk yozardi. Shu bois ham doimo past baho olar, bora-bora o'qishdan ham ko'ngli sovib ketgandi. Men unga juda achinardim...

Tasodifni qarangki, o'zimning kenja o'g'lim ham chapaqay ekanligi ma'lum bo'lib qoldi.



O'g'limning boshiga ham sinfdoshimning kuni tushishini hecham xohlamasdim. U bilan harchand shug'ullanmay, o'ng qo'lida yozishga

farzandimning sog'lom rivojlanishiga salbiy ta'siri yo'qmikan, degan xavotirda uni shifokor huzuriga olib bordim. Xavotirlarim o'rinsiz ekan. Chapaqaylik hech qanday xastalik ham, nuqson ham emas ekan. Chapaqay bolaning boshqaruv markazi o'ng emas, chap tomonda joylashgan bo'larkan, xolos. Ularni o'ng qo'lda yozishga, chizishga va hokazolarga o'rgatish befoyda ekan. Chapaqaylardan juda ko'plab taniqli, mashhur insonlar yetishib chiqqani haqida eshitib, to'g'risi, quvonib ketdim. Zora, o'g'lim ham mashhur bo'lib ketsa...

**Dilfuza SAIDQOSIMOVA,**  
Namangan viloyati,  
Uychi tumani.

### Muharririyatdan:

Dilfuza opaning maktubi bizni ham o'ylantirib qo'ydi. Darhaqiqat, ko'pchilik bolalar chapaqay ekanliklaridan or qilishadi. Vaholanki, ularning boshqa bolalardan hecham farqi, kamchilik joylari yo'q...

Shunda biz bir g'aroyib tanlov o'tkazishga qaror qildik. Bu tanlovning boshqalaridan farqi shundaki, unda hamma bolalar emas, faqat chapaqay bolalargina ishtirok eta oladilar. Tanlov bo'lgandan keyin uning shartlari, talablari va albatta g'oliblari ham bo'ladi.

# DIQQAT! DIQQAT!

## CHAPAQAYLAR TANLOVI!

1. Tanlovda ishtirok etishni xohlagan har bir bola «Tong yulduzi» gazetasiga 2005 yil uchun obuna bo'lishi shart. (Buning uchun 1 ochko qo'shiladi).



2. Chap qo'lda chiroyli yozish, rasm chizish, tikish-bichish, to'qish, naqqoshlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, kosibchilik, qo'yingchi, chap qo'lingizda nimaiki ish bajara olsangiz, tahririyatimizga ulardan namunalar yuboring. (Har bir ish uchun 1 ochkodan qo'shiladi).

3. Tanlovga tavsiya etilgan ishlarning haqiqatan ham chap qo'lda bajarilganligini tasdiqlovchi maktab ma'muriyatining tasdiqnomasi bo'lishi shart.

### ESLATIB O'TAMIZ:

Tanlovga tavsiya etilgan ishlar uch oy muddat ichida, ya'ni 20 sentabrdan 20 dekabrgacha qabul qilinadi. Tanlov yangi yil arafasida yakunlanib, g'oliblar quyidagicha mukofotlar bilan taqdirlanadilar:

1-o'ringa - Magnitafon 2-o'ringa - Rolikli konki 3-o'ringa - Soat



Shuningdek, g'oliblarning surati gazetada chop etiladi.

Shunday qilib, tanlovimiz boshlandi. Unda ishtirok etib, sovrinlarni qo'lga kiritishga shoshiling, aziz CHAPAQAYLAR!

Maktublaringizni quyidagi manzilga yuboring: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy. «Tong yulduzi» gazetasi, «CHAPAQAYLAR TANLOVI»ga.

Maktublaringizda o'zingiz haqingizda to'liq ma'lumot yozishni hamda rangli tasvirdagi suratingizni yuborishni unutmang.

## QUTLUG' QO'SHA AYYOMING!



Hamma maktablarda bo'lgani kabi bizning maktabimizda ham qo'shaloq bayramga bag'ishlangan katta shodiyona bo'lib o'tdi. Tadbirga maktabdoshim Mahmudjon Azimov ikkimiz boshlovchilik

qildik. Maktabimiz rahbari Kozim aka Agzamov davraga chiqib, barchamizni yangi o'quv yili bilan chin dildan muborakbod etdilar. So'ngra, mehribon ustozlarimiz samimiy qutlashdi. Quyi sinf o'quvchilari ijrosidagi kuy va qo'shiqlar, she'r va raqslar kechamizga fayz kiritdi.

So'ngra, birinchi qo'ng'iroq sadolari yangradi. Uning jarangdor ovozi barchamizni to'lqinlantirib yubordi. Ayniqsa, maktabga ilk bor qadam qo'yayotgan uka va singillarimiz dilidagi hayajonni, chehrasidagi quvonchni aytmaymizmi?

Men ham do'stlarimga sovg'a tariqasida o'zim yozgan quyidagi she'rinni o'qib berdim:

*Bag'ring oqtoq, mistli nurga cho'milgan,  
Emin-erkin yashar qizu o'g'loning.  
Dillarga bir olam quvonch yog'lgan,  
Valanim, muborak qo'sha ayyoming!  
Ummon sabrlarga ko'milgan yurak,  
To'rida yashaydi sening hayoting.  
Istiqol, istiqbol bu mangu tilak,  
Valanim, muborak qo'sha ayyoming!*

**Dilafro'z USMONOVA,**  
poytaxtimizdagi 169 - maktabning  
8 - sinf o'quvchisi.

## MAKTABIMNING «TO'YI»




Maktabimiz Jo'sh qishlog'ining eng xushmanzara yeriga joylashgan. Bu yil uning «to'yi»ni tantana qilamiz. Qanday to'y, deysizmi? 80 yilligini-da. 1924 yilda qurilgan maktabimizni shu kungacha 3254 nafar o'quvchi tamomlagan bo'lsa, shulardan 123 nafari oltin, 22 nafari kumush medal olishgan. Hozirgi kunda maktabimizda tahsil olayotgan 657 nafar o'g'il-qizga U.Xolmatov, N.Shodmonova, F.Eshniyozov, B.Emazarov kabi 67 nafar o'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustoz-murabbiylar saboq berib kelishyapti.

Ustozlarimizni, maktabdoshlarimizni, shuningdek, maktabimiz rahbari jonkuyar inson Mamadiyor aka Ortiqovni maktabimning muborak 80 yillik to'yi bilan chin dildan muborakbod etaman.

**Dilafro'z SHAMSIYEVA,**  
Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 56 - o'rta maktabning 8 - «B» sinf o'quvchisi.

Maktabga ilk bor qadam qo'yganimda maktabni hecham yoqtirmagandim. Chunki bog'chamda o'rtoqlarim ko'p edi, mazza qilib

maktabimni sog'inib qoldim. Ayniqsa, mehribon ustozimiz Xursand opa Nizomovani. Axir ularga, sinfdoshlarimga aytadigan gaplarim, so'zlab



## NIYATIM - TOJ MAHALNI KO'RISH

o'y nardik. Maktabda esa zerikey qolgandim. Keyinchalik Mahliyo, Murod, Setoralar bilan do'stlashib oldim. O'qishlarga ham shu darajada qiziqib ketdimki, hatto ta'til kunlarida

beradigan hikoyalarni ko'payib qolgandi-da...

Mana, yangi o'quv yilini ham boshlab yubordik. Ustozimga, sinfdoshlarimga ta'tilda dadajonim bilan Navoiy, Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlariga sayohatga borganimiz, Al-Farg'oniy, At-Termiziy bobolarimiz qabrlarini ziyorat qilganimiz haqida so'zlab berdim. Tezroq katta bo'lib, Hindistonga borish, Toj Mahalni o'z ko'zim bilan ko'rish niyatida ekanligimni ham aytdim.

**Muhabbat MUBINOVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi  
Ulug'bek nomli maktabning 2 - «D» sinf o'quvchisi.



- 7-sinfda o'qib yurgan vaqtlarimda raqs tushishga qiziqib qolganman. Chiroyli o'zbek milliy liboslarini kiygan raqqosalarni ko'rsam ruhlanib ketardim. Shunda qalbimda bir niyat paydo bo'ldi - men ham albatta o'zbek milliy libosini kiyib raqsqa tushaman. Raqsqa tushganda ham chet davlatida. O'zga yurt bolalari ham milliy kiyimlarimiz, milliy qo'shiqlarimiz va raqslarimizni ko'rib, bizga havas qilishsin.

**-Orzuingiz amalga oshdimi?**

- O'z im o'ylaganimdan ham zo'r bo'ldi. «Assalom, quyosh» nomli raqs to'garagimiz a'zolari bilan birgalikda rahbarimiz Muborak Gayratovna boshchiliklarida Parij va uning bir nechta viloyatlariga safar qildik. O'ttiz nafar qizdan iborat guruhimiz bir oy davomida o'zbek milliy raqslarini Parijdagi do'stlarimizga namoyish etdik.

**-Raqsularingizni parijliklar qanday qabul qilishdi?**

-Raqsimiz ularga manzur bo'lgani qarsaklardan sezilib turardi. Ayniqsa, milliy liboslarimiz ko'pchilikka yoqdi. U yerda juda ko'p do'stlar orttirdim. Hozirda ular bilan internet orqali gaplashib turamiz. O'sha kunlarni, do'stlarimni hozir sog'inyapman.

**-Parij bolalari va o'zbek bolalari orasida qanday farq bor ekan?**

-Tilini hisobga olmaganda, ozgina farqni sezdim. U yerlik bolalar, ya'ni o'zim tengilar hayotiga qiziqdim. Ular yosh bo'lsalar ham ko'pgina mas'uliyatni o'z zimmlariga olgan ekanlar. Vaqtni hamma narsadan

-Juda ko'p narsalarni, masalan, ovqat yeyishni, chiroyli kiyinishni, uxlashni, yana katta oyimlarning «Dinoraoy» deb chaqirishlarini yoqtiraman. Sayr qilish kimga ham yoqmaydi, deysiz! Lekin ko'proq o'qisam o'zimga foyda - ku.

mard, mehribon, shirinso'z otam bo'lishini orzu qilaman.

**-O'zingiz ham yolg'on gapirib turasizmi?**

-Ha, ba'zida bunday hol bo'lib turadi...

**-Kimlarni aldashga urasiz?**

-Tez-tez emas, kezi kelganda oyimlarni aldashga to'g'ri kelib qoladi.

**-Buning uddasidan chiqasizmi?**

-Yo'q, aldaganimni «sotib» qo'yishadi. Shunda oyim buni bilib qolib, biroz koyib beradilar.

**-Xafa bo'lsalar kerak-da?**

-Ularni xafa qilib qo'ysam uzr so'ramagunimcha ko'nglim tinchimaydi. Aybimni bilsam, albatta kechirim so'rashga harakat qilaman.

**-Menimcha, uzr so'ragandan ko'ra, uzr so'raydigan ishni kamroq qilish kerak. Ammo har doim ham biz o'ylagandek bo'lmaydi-da...**

-Men ham shunday deb o'ylayman. Lekin kechirish ham hammaning qo'lidan kelavermaydi. Mening oyim kechirimlilar. Hamma ayblarimni kechiradilar va xatolarimni to'g'rilashga yordam beradilar.

**-Do'stlaringizga tilaklaringiz.**

-Hamma orzu-istaklari amalga oshsin. Bir-birlarining qadrlariga yetib yashashsin. Chunki do'stlikdan ulug' ne'mat yo'qligini, do'stlik barcha narsadan ustun ekanligini anglashning o'zi katta gap.

**-Tilaklaringiz o'zingizga ham hamroh bo'lsin.**

Gulyuz VALIYEVA suhbatlashdi.

# UZR SO'RASHDAN KO'RA...



Suratda: Dinora tog'asi bilan.

ustun qo'yib, kundalik rejalari asosida ish yuritisharkan. **-Bolalikedanoq ulg'ayib qolishgan ekan-da...**

-Ha, xuddi kattalardek vaqtlarini huda behudaga sarflayverishmas ekan. Maktabda o'qib yurgan chog'laridanoq qaysi universitetga kirishni aniqlab olib, maqsadlari sari intilib, o'qishga katta e'tibor qaratishlari menga juda yoqdi. Bizda esa aksar bolalar ota-onalarining qistovlari bilan dars tayyorlashadi. Hammasimas-ku, lekin ko'pchilik sinfdoshlarim shunday-da. Iqtisod sohasini yaxshi ko'rganim bois maktabda yaxshi bilim olishga va 11-sinfni bitirgach, Angliyadagi Iqtisodiyot Universitetining Xalqaro biznes fakultetiga o'qishga kirishni rejalashtirib qo'ydim. Shuning uchun ham ingliz tilini mukammal o'rganayapman. Qancha ko'p o'qisam fikrim tiniqlashib borayotganday tuyuladi.


**-Dugonalaringiz bilan sayr qilishni yoqtirmaysizmi?**

Shuning uchun ham ba'zida yoqtirgan narsalarimdan o'zimni tiyishga harakat qilaman.

**-Insonlarning qaysi jihatlari ni qadrlaysiz?**

-Yolg'on gapirgan insonlarni xushlamayman. Rostgo'ylik va mehribonlik kabi fazilat sohib va sohibalarini qadrlayman. Mehribon odamlarni ko'rsam katta oyim va tog'am yodimga tushishadi. Chunki ular bizga judayam mehribonlar. Tog'amdek

**Dinora PARPIYEVA**  
1989 yil, 2 avgustda tug'ilgan.  
Xushchaqchaq va ko'ngilchan qiz.  
Raqs tushish jonu dili. «Assalom, quyosh» raqs ansambli a'zosi. Orzusi - har tomonlama mukammal, betakror go'zal qiz bo'lish.



Dinora chet eldagi do'stlari bilan.



Mohira sinfdoshi Gulziraga doimo taqlid qilardi. U qanday kiyim kiysa kiyar, qanday narsa sotib olsa u ham albatta sotib olardi. B e s h

## O'ZGA TAQDIRGA TAQLID

qo'l barobar bo'lmaganidek, bu ikki qizning oilaviy sharoiti ikki xil tarzda kechardi. Gulzira o'ziga to'q, badavlat oiladan bo'lsa, Mohira oddiygina oilaning farzandi bo'lib, ota-onasi dehqonchilik orqasidan kun ko'rishardi. Mohira dugonasiga ming taqlid qilmasin, buni bilib, ko'raverib o'rganib ketgan Gulziraning sinfdosh qizga hech qanday xusumati yo'q edi. U ochiqqina, xushmuomala, samimiy qiz bo'lsa, Mohira maqtanchoq, erka qiz bo'lib, hadeb ota-onasiga xarxasha qilaverardi. Birgina yaxshi tomoni - Gulziraga taqlid qilib, a'lo o'qishi edi.

Bitta-yu bitta qizi, ko'zining oqu qorasi Mohiraning har kungi harajatlariga pul yetkazib berolmayotgan ota o'z taqdiridan ranjirdi. Dehqonchilik orqasidan hech qachon

Qalbindagi tuyg'ular

birim Dovdirab, tizzalari dag'-dag' ikki bo'lmaydi, deb qaltirayotgan Botir akani uy o'ylardi. Ota farzandi uchun egasi hech ikkilanmay, hayotini garovga qo'yib, militsiyaga topshiradi. «yolg'iz farzandim Mohira Zamira o'ksimasin, opa bilan

dugonalaridan kam bo'lmasin», deya katta xatoga yo'l qo'ydi.

...O'sha kuni ota kechasi qizini yuz-ko'zidan asta o'pib chiqib ketdi. O'zi xohlamaygina qo'l urgan bu ishi uning qo'llariga kishan solinishiga sabab bo'ldi.

O'zlaridan uch mahalla naridagi ko'chada yashovchi Sulaymonovlar xonadoniga pinhona kirgan Botir aka og'ilxonadagi ikki bosh qoramolni olib chiqib ketayotib, to'satdan hovliga chiqqan uy egasi bilan to'qnashib qoladi.

qamoqxonaga borganida behol hushini yo'qotadi. Ko'zini ochib yarim kunda bag'ri-dili pora-pora bo'lib, birpasda keksayib qolgan onasini va panjara ortidan ma'yus boqayotgan otasini ko'rib, ho'ngrab yig'lab yubordi.

-Kechiring, dadajon, kechiring, ayajon! Itimos, men aqlsiz, nodon qizingizni kechiring!-deya iltijo qilardi u...

Munisa ZIYOVUDDIN qizi, Toshkent viloyati, Parkent tumani.




## NOGIRON - NIGORON DEGANI EMAS

Aziz bolajonlar! E'tibor bersangiz, go'dak singlingiz, ukangizning nigohlarida mislsiz hayrat, lablarida shodon qiyqiriqni his qilasiz. Ularning sizga tomon cho'zilgan qo'lchalari-yu, talpinib yurishlarida bu dunyoga qadam ranjida qilayotgan insonning baxtiyorligi mujassam.

Farg'ona shahar Xalq Ta'limi bo'limi tasarrufidagi 7-sonli bolalar bog'chasida 220 dan ziyod shunday baxtli bolalar tarbiyalanadi. Har bir guruhga 5 nafardan nogiron bolalar ham jalb qilingan. Ularning

aqli zaif, suyanch-tayanch harakat a'zolari tug'ma nogiron. Bog'cha mudirasi Zulfiya opa Nishonovanning so'zlariga qaraganda bu bolalarni tarbiyalanuvchilarning o'zlari mehr bilan tarbiyalashmoqda. Bolajonlar orasida o'zlarini tetik va bardam tutayotgan, kemtik qalblari biroz bo'lsa-da, taskin topayotgan jajjilarni ko'rib quvonib ketasiz. Har bir inson xoh u katta bo'lsin, xoh kichik, hayotda o'z orzu umidlari bilan yashaydi.

Nogiron bo'lsa-da, yuragida orzulari bir olam bu bolajonlar sog'lom tengdoshlari singari harakat qilishga jon-dili bilan intilishmoqda. Rang-barang musiqa asboblari, turli o'yinchoqlar ularni ham mo'jizalar olami sari yetaklaydi.



—Ta'lim maskanimizda kichkintoylar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, - deydi Zulfiya opa. - Har taraflama qulayliklarga ega sport maydonchamiz, turli to'garaklar ular ixtiyorida. Bog'chamizda mehnat qilayotgan tarbiyachilar va uslubchilarimiz o'z kasblarini sevisadi. Ularni ishga qabul qilayotganimizda bolajonlarga bo'lgan mehr-muhabbatlariga alohida e'tibor beramiz. Ayniqsa, nogiron bolalarga alohida e'tibor zarur.

Maskanimizda tarbiyalanayotgan ana shunday bolalarni sog'lom bolalarning xatti-harakatlari, o'zaro munosabatlar jarayonida tarbiyalab boramiz. Ular do'st-inoq bo'lib o'sishlari, aql-idrokining rivojlana borishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga intilayapmiz.

Mehnatimiz o'z natijasini bermiqda. Hozirda bog'chamizda tarbiyalanayotgan kichkintoylarning bari birgalikda har xil mashg'ulotlar, qiziqarli o'yinlar o'ynashadi. Eng muhimi, xasta ko'ngillarga bolajonlarning o'zlari mehr ulashib, dardlariga malham bo'lishmoqda. Zulfiya opaning gaplarida jon bor:

—Ushbu ta'lim maskanida bo'lgan kishi mehr-muruvvat tanlamasligini, eng muhimi, bolajonlarga berilayotgan to'g'ri tarbiyaning ijobiy natijalarini o'z ko'zi bilan ko'rish shubhasiz. Zero, murg'ak qalblar hech qachon mehrga zor bo'lishmasin.

Abduhamid ABDUG'AFFOROV.

Yurtimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kuni Feruza opa uchun qo'shaloq bayram bo'lgandi: Istiqlol bayrami va birinchi ish kuni. Buxoro Davlat Pedagogika Institutini tamomlab, G'ijduvon shahridagi 1-maktabga ishga kelganiga ham mana hash-pash deguncha 13 yil bo'libdi. Birinchi ustoz - onasi M.Qurbonovadan, Dilorom Alimova, Saodat O'rinovalardan ko'p narsalarni o'rgangan, kasb mahoratini oshira borgan Feruza opaning o'zi ham hozir ustoz. Muborak Hamidova, Nigora Kalonova, Asliddin Orziyev, Dilafro'z Husenova kabi

## ENDI O'ZI HAM USTOZ



shogirdlariga bilganlarini o'rgatib kelyapti. Noan'anaviy dars turlaridan keng foydalanadigan, ta'limni tarbiya bilan qo'shib olib boradigan, dars davomida o'quvchi faoliyatining kengligiga alohida e'tibor qiladigan Feruza opaning ish uslubi shahar miqyosida ommalashtirilgan. Ustoz har bir shogirdining yutug'ini o'ziniki bilib, astoydil quvonadi. Eng a'lochi o'quvchilari Sojida Istamova, Odil Sharopov, Mahmud Hojiyev, Nodir Ne'matovlar turli oliygohlarga o'qishga kirishganda, opa xuddi o'zi kirgandek boshi osmonga yetgandi. Ustozning hozirgi o'quvchilaridan ham umidi katta. Har bir darsni zo'r qiziqish va e'tibor bilan tinglashlariga boqib, ularning ham komil inson bo'lishlariga ishonadi.

Ozoda MUHAMMEDOVA.

## ONAMGA YOQMAS SO'Z

Barcha o'smir qizlarimiz kabi mening ham orzularim bor. Ana shu orzularim yo'lida G'uzor tumanidagi jahon tillari ixtisoslashgan litseyiga hujjatlarimni topshirgandim. Bir kuni quvonchim ichimga sig'may: «Agar o'qishga kirsam, yaxshi o'qishga harakat qilaman. Amerikaga, Hindistonga boraman, juda ko'p ishlarni mustaqil amalga oshiradigan inson bo'laman...», dedim. Birdan onam oshxonadan otilib chiqib, menga: «Bas qil, eshitishni ham xohlamayman. Opang ham xuddi shu gaplarni aytgandi, lekin hamma harakati bekor ketib, imtihonlardan o'ta olmadi, avvalo o'qishga kir, keyin orzularingni aytasan», dedilar. Men hayron bo'lib qoldim. Onamning bu gaplarida ishonchsizlik va afsus-nadomat bor edi. Bildimki, bu so'zlarim onamga yoqmasdi. Chunki ular mening ham opam kabi barcha orzularim sarob bo'lib qolishini, imtihonlarni topshira olmasligimni istamasdilar.

Men esa ishonchimni yo'qotmadim. O'qishga qiziqishim barcha to'siqlarni yengib o'tishiga, albatta bir kunmas bir kun umidlarim ro'yobga chiqishiga ishonaman.

Zilola JALILOVA,  
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani.

Dadam uyga kelsalar,  
To'lib ketar uyimiz...

Endigina tili chiqayotgan

ukam Bahrom shu she'rni ko'p aytardi. Haliyam shunday, lekin u kunlar boshqacha edi...

Dadam bir firmada bosh hisobchi bo'lib ishlaydilar. Uyimizda to'kin-sochinlik, hammamiz shod-hurram edik o'sha paytlar. Buvim,

buvam, oyim, dadam baxtiyor yashardik. Mashinamiz, boshqalarnikidan chiroyliroq qilib qurilgan, mahallaga ko'rk bag'ishlab turadigan ikki qavatli uyimiz bor edi. Lekin nima bo'ldi-yu, dadamning ishidan kamomad chiqib qoldi. O'sha kunlarni eslasam, yuragim orqaga tortib ketadi. Dadam ishdan bo'shab ketdilar. Ularni uyda siqilib o'tirganlarini ko'rib men ham siqilib ketardim. Chunki ularning boshiga tashvish tushib turganda bizning qo'limizdan hech narsa kelmasligi meni ranjitardi. Oradan bir yil o'tdi. Oyim maktabga farrosh bo'lib ishga kirdilar. Men uchun yana ham azobli kunlar boshlandi. Menga yaqin dugona va hatto opa-singil bo'lamiz, degan dugonalarim mendan yuz o'g'irgan, darslar tugagandan keyin oyimga yordam berishga kelishimdan xabar topgan o'g'il bolalar meni

## DADAM UYGA KELSALAR...


mazax qilib, partalari tagiga ataylab qog'oz tiqishtirishardi. Dadam har kuni Bahromga o'sha she'rni aytirib, unutilib qo'yma bu she'rni, hali hamma narsamiz bo'ladi, yorug' kunlar keladi, bolam, derdilar. Lekin ana shu yorug' kunlar uzoqlashib ketayotganga o'xshaydi. Bu yil 9-sinfga boraman. Sinfidoshlarimning qiliqlari esimga tushsa, umuman maktabga borgim kelmaydi. Lekin nailoj, yaxshi o'qishim, dadam bilan oyimni yuzlarini yerga qaratmasligim, dadam aytganlaridek, yorug' kunlar yaqinligiga ishonib yashashim kerak. Do'st boshga kulfat tushganda bilinadi, deyishadi. Bu kichkinagina tashvishim bilan men «boyvachchaning qizi» deb nom olgan vaqtimda atrofimda girdikapalak bo'lgan soxta dugonalarimning asl basharalari qanday ekanligini bilib oldim.

Eh, essiz, do'stlik...

Zarifa NORMURODOVA,  
Toshkent viloyati, To'ytepa qishlog'i.







Kelajak qanotlari


Sirojiddin Zayniddinov 1990 yilda Jizzax viloyati, Arnasoy tumanida tug'ilgan. 5 yoshidan buyon shaxmat o'ynaydi. Oilada sakkiz farzandning yettinchisi. Shaxmat bo'yicha ustoz - otasi Davron Zayniddinov. Sirojiddin bir necha yillardan buyon ko'plab musobaqalar qatnashchisi va sovrindori bo'lib kelyapti. Endilikda sovrinlari qatoriga jahon chempioni unvoni ham qo'shildi. 14 yoshli chempionimiz hozirda Toshkent shahridagi 106-zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internatining 6-sinfida o'qiyapti, Prezident sovg'asi sovrindori.

davlatidan kelgan shaxmatchilar bilan o'zaro bellashuvlarimiz boshlandi. Birinchi raqibim turkmanistonlik Ashurovani, ikkinchi raqibim rossiyalik Yura Galanovni va uchinchi raqibim Choriyevalarni 1:0 hisobi bilan yengdim. Finaldagi raqibim 19 yoshli rossiyalik Yura Galanov bo'ldi. Tan olishim kerak, u men uchun juda kuchli raqib edi. Musobaqa qatnashchilari ham, ishqibozlar ham Yuraning chempion bo'lishiga

## SIROJIDDINLAR KO'PAYSIN

Maxsus maktab-internatda ishlash oson emas. Bu yerda tahsil olayotgan 353 nafar zaif eshituvchi va nutqi rivojlanmagan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, mehr ko'rsatish uchun tog'dek bardosh kerak. Birgina so'z ustida soatlab ishlashning, ular fikrini tushunib olishning o'zi bo'lmaydi. Internatimizda respublikamizning turli burchaklaridan kelgan bolalar tahsil olishadi. Ular uchun sharoitlar yaratilgan. Bolajonlarga 4 mahal issiq ovqat beriladi. 64 nafar malakali o'qituvchi, 34 nafar tarbiyachi va 12 nafar enaga ular atrofida parvona. 17 turda mashg'ulot o'tiladigan to'garaklarimiz muntazam ishlab turibdi.

Bugun o'quvchilarimizdan biri jahon chempioni bo'ldi. Yurtimiz dovrug'ini jahonga yana bir bor tanitgan Sirojiddinning muvaffaqiyati bizning ham ko'ksimizni faxr-iftixorga,



g'ururga to'ldirib yubordi. Istardikki, barcha o'quvchilarimiz Sirojiddin kabi ishonchimizni oqlab yurishsin.

**Feruz YO'LDOŠEVA,**  
Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanidagi 106-zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internati direktori.

## ARNASOYDAN CHEMPION CHIQDI

Arnasoyning Fayzulla Xo'jaev ko'chasida duv-duv gap tarqaldi: «Shaxmat murabbiysi Davron akaning zaif eshituvchi o'g'li bor-ku, o'sha jahon chempioni bo'libdi...»

Ha, bu gaplarda jon bor. Sirojiddin Zayniddinov Germaniyaning Malenti shahrida bo'lib o'tgan o'smirlar orasidagi shaxmat bo'yicha jahon chempionatida chempion bo'lib qaytdi.

Bu ajoyib xushxabardan quvonib, biz ham Sirojiddin tahsil oladigan maktab-internatga oshiqdik. Maktab rahbariyati uning sharafiga faxrli burchak tayyorlash ishlari bilan band ekan. Kichik jussali, qorachadan kelgan, tim qora ko'zlarida quvonch balqib turgan bolakayni bizga Sirojiddin, deya tanishtirishdi. U biroz qiynalib gapirsa-da, so'zlari ma'nodor, fikrlari teran edi. Malenti shahridan olgan xotiralarini bizga shunday hikoya qildi:

-U yerga borayotganimda chempion bo'lishimni xayolimga ham keltirmagandim. 5 yoshimdan shaxmat o'ynaganim, dadam va akalarim bilan ko'plab shaxmat musobaqalari o'tkazib, ancha tajriba orttirganim qo'l keldi. Yana, dunyoga mashhur Alyoxin, Steynits, Lasker, Kapablanka, Kasparov, Ivanchuk, Grishchuk kabi mohir shaxmatchilar o'yinlarini oynaydi jahon orqali kuzatishlarim ham asqotdi...

Nihoyat, Rossiya, Shvetsiya, Ukraina, Turkmaniston



qattiq ishonishardi. Ammo bashorat qilganlar uyalib qolishdi. Chunki finalda men g'olib chiqdim. Kuchli raqibim ustidan 32-yurishda vaqt hisobida g'alaba quchdim.

Chempionlik shohsupasiga chiqqanimda dadajonimning, onajonim Hayitgul opaning quvonishlarini,

yaqinlarimni, hamqishloqlarimni ko'z oldimga keltirdim. Mehribon ustozlarimga, ayniqsa, internatdagi barcha o'qituvchilarimga bo'lgan mehrim yanada ortdi. Bu g'alaba birgina meniki emas, barchamizniki, deya hayqirgim kelardi...

Darhaqiqat, shu kuni internatda katta shodiyona bo'ldi. Ustozlari-yu maktabdoshlari Sirojiddinning quvonchiga sherik bo'lishdi. Chempionning yutug'i yurtboshimiz tomonidan ham munosib taqdirlanib, kompyuter sovg'a qilingani haqidagi xushxabar ularni yanada quvontirib yubordi.

Ayniqsa, Sirojiddinning o'zini. Yurtboshimizning e'tibori va sovg'asi uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi. Ayni kunlarda Gretsiyada bo'lib o'tadigan yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatiga qizg'in hozirlik ko'rayotgan Sirojiddin kelajakda Rustam Qosimjonovdek grossmeyster bo'lish ishtiyoqi bilan yashayapti.

## O'ZBEK KURASHI O'QUV DASTURIDA

Aziz o'quvchilar, yangi o'quv yilidan darsliklaringiz soni yana bittaga ortadigan bo'ldi. Xalqimizning faxri va g'ururi bo'lmish o'zbek kurashi umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturiga kiritildi. Bu xushxabar kurash ixlosmandlarini behad quvontirgan bo'lsa, ajabmas.

Bundan ko'zlangan maqsad o'zbek kurashining dunyo miqyosida yanada ommalashuvi va kelajakda Olimpiya o'yinlari dasturidan munosib o'rin olishiga erishishdir.

2004-2005-o'quv yilining ikkinchi yarim yilligidan boshlab kurash maktab darsliklarining jismoniy tarbiya fani dasturiga asosan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Bu fan 5-6-sinflarda 10 soatdan, 7-8-sinflarda 12 soatdan, 9-sinflarda 14 soatdan, 10-11-sinflarda esa 16 soatdan o'qitiladi.

Amaliyot mashg'ulotlari Bolalar va o'smirlar sport maktablarining maxsus bo'limlarida davom ettiriladi. Mazkur dastur Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi tomonidan tayyorlandi.

Hozirda maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya fani darsligi bilan ta'minlash ishlari yakuniga yetmoqda.

1-7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan «Jismoniy tarbiya» darsliklari 50 ming nusxada chop etildi. 8-9-sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar mualliflar tomonidan qayta ishlanmoqda.

Umid qilamizki, maktab o'quvchilari orasidan o'zbek kurashi dovrug'ini dunyoga taratayotgan polvonlarimizga munosib o'rinbosarlar ko'plab yetishib chiqadi.



Sahifani Ma'mura YIGITALI qizi tayyorladi.



(Davomi. Boshi gazetaning o'tgan sonlarida.)

Bolalar balandlikdan tik jarga tushdilar va lopillama ikki xoda tashlangan bir ariq oldida to'xtadilar.

-Yaqin qoldi, lahzada yetib olurmiz,- dedi o'rtog'i suvga tikilib turgan Alisherga qarab.

-Chuqurmikan?- deb so'radi Alisher.

-Chamamda chuqur, tiniqligini qara,- deya o'rtog'i hovuchlarini to'latib bir-ikki ichib olgach, atrofga socha boshladi.- Qani o'taylik.

Alisher cho'chidi-yu, ammo buni o'rtog'iga bildirmaslikka tirishdi:

-Mayli, tavakkal, o'tamiz.

Bola nayni Alisherning qo'lidan oldi:

-Qo'rqma, dadil bo'l, sekin bos,- dedi xoda ustida ikki qadam tashlagach, Alisherga qo'l uzatarkan.

-Yo'q, yo'q, o'zim o'tamen,- dedi Alisher.

-Ehtiyot bo'l, suv tez,- deya lipillaganicha o'tib oldi bola.

Alisher qo'rqanidan oqaribroq ketgan edi-yu, lekin o'zini qo'lga olib, xodaga sekin oyoq bosdi va qanday o'tib ketganini sezmay ham qoldi.

-Bo'shang bolalar suvdan qo'rqadi, tetik, dadil bolalar, hayt, deydigu sakraydi. Ancha yurakli ekansen, Ali.

Qing'ir-qiyshiq tor ko'cha boshidagi eshikka kirdilar.

Hovlining bir chetida pastakkina uy, o'rtadagi katta tutning quyuq

## ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

ko'lankasidagi supada lo'labolishga yonboshlagan qariya xomush o'ltirardi.

-Assalomu alaykum, ustoz, salomatmisiz?- deya ko'rishdi bolalar, qo'llari ko'ksida, ta'zim bilan.

-Kelinglar, yigitlar, borakalloh! Bu kimning o'g'loni, yaxshigina bola ko'rinadur? -deya Alisherga tikildi u.

-Ustoz, bu yigitcha mening o'rtog'im, ismi Alisher, ehtimol tanirsiz, G'iyosiddinbek janoblarining farzandlari.

-E-e, balli-balli, G'iyosiddin Kichkinaning o'g'illari degin? Voy-bo'y, odobli, yaxshi yigitcha ekan-ku.

-Qani, o'ltiringlar,- deb supadan joy ko'rsatdi. -Iya, bu nayni nechun ko'tarib yuribsizlar. Yaxshi-ku juda!

Alisher ikki qo'llab nayni uzatarkan, o'rtog'i uni maqtashga kirishdi.

Ustoz xo'b sinchiklab nayni qo'llarida aylantirdi, silliqiligini, qanday sozlanganligini, go'zalligini, yengilligini hammasini xayolidan kechirdi.

-Kim yasagan bo'lsa-da, xo'b bilgich ekan!- dedi u nihoyat.

Bola tag'in tushuntira boshladi. Alisherni sevintirish uchun chol nayni necha kun yasaganini gapirib:

-Mana endi sizning huzuringizga

keldik, nay chalishni Alisherbekka o'rgatursiz, rad qilmagaysiz,- dedi o'rtog'i kattalardek jiddiyat ila.

Odob saqlab sukutda o'ltirgan Alisher uyalibgina muloyim ohangda dedi:

-Ehtimol ustozning ishlari ko'pdur, lekin nayga havasim tushib qoldi.

-Yo'q, yo'q, bemalol, jonim bilan o'rgatamen. Nay o'zimizning qadimdan qolgan cholg'u, mungli, ma'yus qalblarning firoqu alamlarini kuylaydur, to'y-bazmlarda uning go'zal sadosi ko'ngillarga zavq to'lduradur, ajoyib sehrkor cholg'udir nay. Alisherbekning ishq tushibdimi, o'rgaturmiz, o'g'lonim xohlama, balki mashhur musiqiy ahlidan bo'lur.

Alisher bilan do'sti kulib yubordilar.

-San'at ruhining joni va gavhari, desam lof bo'lmas, lekin kamina faqiru fuqarolar jumlasidandurki, mana shu kulbai vayrona bizning makonimiz,- deb boshini tebratdi qariya. -Zanginlar bo'lsa muttasil ayshu ishratda. Vodarig', falak!

Alisher qizaribgina, chuqur andisha bilan pastak uyga, hovlining tuprog'i to'kilib turgan paxsa devorlariga ohista qarab qo'ydi.

-Ustoz, Alisherning ixlosi baland, mehnatingiz zoye ketmas deb o'ylaymen, sizning yaxshiligingizni ham aslo unutmaydur,- kattalardek so'zlarini bir-bir chertib gapirurdi o'rtog'i.

-Ha, gapga chechansan-da, bolam,- deya qo'lga nayni oldi ustoz.- Mana, bu muqaddima, eshitinglar!

Bolalar nay sehidan mast, o'zlarini

butunlay unutgan holda chuqur sukutda tinglar edilar. Chol ham butun borlig'i shu kuyga singib ketgandek, berilib chalardi: kuy sekin-sekin pasaydi, allaqayga havoga uchib ketgandek uzoqda tindi.

-Ustoz, rahmat!- dedi hayajonda bola.

-Nafasingiz benihoya ekan,- dedi iymajibgina Alisher ham.

-Balli, o'g'lon! Dildagi ohang nafas ila nayga o'tur.

-Barmoqlar-chi?

-Barmoqlarmi?- kulimsirab javob berdi Alisherga chol.- Barmoqlari kuyni pardalarga solib turadur.

Nayni qanday tutish, nechuk nafas berish va pardalar siri haqida biroz tushuntirgach, ustoz dedi:

-Butun sir mashqda, chirog'im, bir chalib ko'r,- nayni uzatdi.

Alisher nayni olib, biroz xayolda sukut qilgach, labiga tutdi, chalishga urindi.

-Tuzuk-ku,- dedi bola ustodga qarab.

Alisher terlab ketgan edi, nayni qo'ydi.

-Chakki emas, o'g'lim, hali yoshsen,- dedi ustoz va tag'in o'zi nayda oson bir kuyni chalib, barmoqlarni qanday yurgizish, pardalarga nafasni nechuk urishni takror-takror uqtirdi.

Buguncha bas, uch kun muddat senga, o'g'lim, yaxshilab mashq qilgach, tag'in ketursen.

Ikki bola ham xursand edi, odob va ta'zim ila xayrlashgach, xush-xandon chiqib ketdilar.

Alisher uyda onasiga, bibisiga, ayniqsa, cholga ustoz naychi oldiga borganini, birinchi darsni qayta-qayta mukammal so'zlab: «Mana, eshiting!», deya chala bo'lsa-da, bilganicha chalishga urinardi.

(Davomi bor.)

## VASHASH ZAVQIN YURAGIMDAN KUPLAYMAN

Tengdoshingiz Raxshona Tursunali qizi bolaligidan she'riyatga havas qo'ygan. U yoshlik shijoati, oydin orzular og'ushida qalam tebratadi, rasmlar chizadi, musiqa asboblariida kuylar ijro etadi. Kezi kelganda esa keng dalalar bag'rida mehnat qiladi. Kuyu qo'shiqqa, she'riyatga oshno qalb bir zum bo'lsa-da, orom bilmaydi. Tinimsiz mehnatlarining mevasi sifatida uning «Bahorim, kelaqol», «Bahor qaldirg'ochi» nomli she'riy to'plamlari chop etilgan. She'riyat gulshanida o'ziga xos bo'y taratayotgan bu ajib gulning husnu tarovati barchani lol qoldirib, bo'y cho'zaversin. Bokira tilaklaring hamisha ijobat bo'lsin, Raxshona!



### ORZULAR SHAHRI FOSHKENTGA

O, Foshkentim, azim shaharim,  
Istiqboli portagan shahar.  
Seni orzu qilmas aylchi, kim  
Senga tomon yurak talpinar.  
Yuksaklarga yetaklar orzu,  
Keng ko'chalar chortlaydi meni.  
Falabalar to'la shahar bu.  
Fushlarimda ko'raman seni.  
Sahiy quyosh nuring socharsan,  
Bortiq gulga cho'lg'anar to'lib.  
O, Foshkentim, quchoq ocharsan-  
Qachon menga qishtog'im bo'lib?  
Foshkent, bag'ring kengdir bitaman,  
Gavjum kecha qaynagan hayot.  
Senga tomon chopib boraman,  
Orzulardan minib oppoq ol.  
O, Foshkentim, kulib ol meni...



### DUOGA QO'L OCHAR ONALAR

Onaning bag'ridan boshlanur Vatan,  
Ona bu she'riyat, ona bu - Vatan.  
Atlasi uyg'otur qallda ezgulik,  
Onalar azizdir, onalar buyuk.

Onalar taftini quyoshdan olgan,  
Onalar mehrini allaga solgan.  
Duoga qo'l ochar, bo'lg'in deb suyuq.  
Onalar azizdir, onalar buyuk.

Bolasin ta'riflab tildan tomar bol,  
Doimo olqishlar, ko'rma deb zavol.  
Ertaklar ayladi bo'lg'in deb yetuk,  
Onalar azizdir, onalar buyuk.

Raxshona TURSUNALI qizi.



### ASALLARI

Hoy, beozor bolari,  
Finmay mehnat qilasan.  
Guldan-gullarga qo'nib,  
Chin mehnatni bilasan.

Asallarim shifobaxsh,  
Mazasi tilni yorar.  
Kuchu quvvat elar baxsh,  
Fa'mi og'izda qolar.

Kengliklarda g'uvillab,  
Kuylab uchib yurasan.  
Ozor bersa zudillab,  
Nishing bilan urasan.


Mehmon qilgum sizlarni,  
To'yib asal yesangiz.  
Hecham kasal bo'lmaisiz,  
Tanga shifo desangiz.

Nigora ALLAYOROVA,  
Qashqadaryo viloyati, Qamashi  
tumanidagi 14-o'rta maktabning  
10- «B» sinf o'quvchisi.



# OY YARIMTA OLMAGA O'XSHAYDI

«Kuni kecha Yakkasaroy partamga o'tirib, atrofimga tumanidagi 151-sonli nazar solsam, barcha o'quvchilarning qo'llarida chiroyli daftarlar va bejirim kitoblar. Ularni qiziqib varaqlashmoqda. O'qituvchimiz Barno opa Murodova xuddi onamizga o'xsharkanlar», deydi shiringina jilmayib tengdoshingiz Nodiraxon Inog'omova. Uni birinchi sinfga borgani bilan chin qalbimizdan



aytmaysizmi, biram mehribon, shirinso'z, go'yo mo'jizalar olamiga kirib qolgandek bo'ldim. Mana, nihoyat sehirli qo'ng'iroq jarangladi. Yuqori sinfdagi opa-akalarimiz bizni qo'llarimizdan yetaklab sinf xonamizga olib kirishdi. O'z

tabriklab, suhbatga tortdik?

**-Birinchi darsingiz yurtimiz mustaqilligi haqida bo'ldi, shundaymi? O'zi mustaqillik degani nima ekan-a?**

-Sinf xonamizni ham, sinfdoshlarimni ham,

daralarimizni ham juda yaxshi ko'rib qoldim. Ayniqsa, birinchi darsimizning qiziqarli o'tilishi barchamizda katta taassurot qoldirdi. Ustozimiz Barno ona O'zbekistonimiz haqida, uning ozod va hurliqi haqida bizga qiziqarli misollar bilan tushuntirib berdilar. Endi savolingizga kelsam, MUSTAQILLIK degani - ozodligi va erki o'z qo'lida bo'lgan hur o'lkalar ekan. Ona diyorumiz O'zbekistonning mustaqil bo'lganiga bu yil 13 yil bo'libdi. Bu ota-bobolarimiz asriy orzularining ro'yobga chiqishidir, dedilar Barno opam.

**-Harflarni bemalol o'qiy olarkansiz?**

-O'qiy olaman. O'qish va yozishni bog'chada o'rganib olganman.

**-Nega katta bo'lganimda bolalar istirohat bog'ining direktori bo'laman deyapsiz?**

-Chunki bolalar istirohat bog'ining direktorini hamma hurmat qilar ekan-da. Ular yerdagi barcha arg'imchoqlarda, o'yinchoq

mashinalarda xohlagancha bepul uchadi. Istirohat bog'ida har xil muzqaymoqlar juda ko'p. Yegisi kelsa, ulardan ham ko'p-ko'p olishi mumkin.

**-Qaysi ranglarni yaxshi ko'rasiz?**

-Sariq rangni juda yaxshi ko'raman. Chunki quyosh sariq rangda jilmayib, nur sochib turadi.

**-Oy va yulduzlar bilan suhbatlasharkansiz?**

-Har kuni osmonga to'lin oy chiqishi bilan unga salom berib, so'z qotaman. Nazarimda u ham mening so'zlarimga javob qaytaradi. Oy o'zi yarimta olmaga, yulduzlar esa chamanzordagi gullarga o'xshaydi. Shu gullardan kattakon guldasta yasab, o'rtasiga oyni qo'yib, oyijonimga taqdim etgim keladi.

**-Rasm chizishni yoqtirarkansiz?**

-Ko'proq qo'g'irchoqlarimni rasmini chizishni yaxshi ko'raman. Ularning ismlari ham bor. O'zim qo'yganman -

Malika, Go'zal, Katya, Madina, Lola, Hammasi aqlli. Bir-birlari bilan hecham janjallashmaydilar.

Qo'g'irchoqlarimni o'tqazib qo'yib qo'shiq aytib beraman. Endi esa qo'g'irchoq o'ynashga vaqtim ham bo'lmasa kerak. Darslarim juda ko'p. Dadajonimning aytishicha, qiz bola qancha chaqqon bo'lsa, shuncha ko'p yumushlarni uddalay olar ekan. Albatta ular aytgandek uddaburon qiz bo'lishga intilaman.

**-Oilaning kenjasi ekansiz. Opangiz va akangizga erkalik qilsangiz kerak?**

-Yo'q, erkatoymasman. Endi men kattaman. Axir maktabga borayapman. Nozima opam, Jahongir akam hammamiz ahil-inoqmiz. Uydagi barcha yumushlarni - supur-sidirlarni birgalashib bajaramiz. Nimanidir uddalolmay qolsam, ular menga jon deb ko'maklashadilar.

O'zi ham, so'zi ham qalbi kabi beg'ubor tengdoshingiz Nodiraxon bilan xayrlashar ekanmiz, maktab ostonasiga qo'ygan ilk qadamingiz qutlug' bo'lsin, degimiz keldi.

**Muborak TURSUNOVA,**  
**«Nihol» to'garagi rahbari:**

-O'sib kelayotgan yosh avlodni niholga



qiyoslagandek keladi. Ularni qanchalik avaylab-asrasangiz, voyaga yetkazsangiz, kelajakda shuncha shirin-shakarmevalar

beradi. Ana shu ezgu maqsad yo'lida bizning «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Beshariq tuman kengashi qoshida «Nihol» to'garagi tashkil qilingan edi. Yetti yildan buyon faoliyat olib borayotgan to'garagimizda qanchadan-qancha iste'dod egalari kamol topishdi. Nargiza Mamatova, Shahnoza Abdurahmonova, Zuhra Hamdamovalar hozirgi kunda yetuk jurnalist bo'lishib faoliyat ko'rsatishmoqda. Hozirda ham ushbu maskanda yuzdan ortiq iste'dod egalari o'z ijodiy mahoratlarini oshirishmoqda. O'quvchilarimizning ijod namunalari viloyatimizdagina emas, balki respublika gazeta va jurnallarida ham chop etilmoqda. Bundan biz ustozlar haqli ravishda faxrlanamiz. Kuni kecha tumanimizda «Nihol» to'garagi tashkil etilganiga yetti yil to'lishi munosabati bilan katta bayram kechasi o'tkazildi. Ushbu tadbirda ijodkor o'quvchilarimiz mushoira o'tkazdilar. Kechada yangragan kuy-qo'shiqlar, jozibali raqslar, turli sahna ko'rinishlari

## «NIHOL» NING ISTE'DODLI NIHOLLARI

yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Kecha so'ngida iste'dodli yoshlarimizga «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati tuman kengashining esdalik sovg'alari topshirildi.

**Dilnavoz SHODIYEVA,**  
**Beshariq tumanidagi 24-maktab o'quvchisi, to'garak a'zosi:**

«Nihol» to'garagiga muntazam ravishda qatnashib kelaman. Bu yerda ko'plab tengdoshlarim bilan ijodiy fikr almashamiz. Bilmaganlarimizni o'rganamiz. O'zim she'r yozishga qiziqaman. Yurtimizning jannatmakon go'shalarini, bebaho odamlarini, ajoyib urf-odatlarimizni satrlarga muhrlasam deyman:

*Oy harir ro'molin ko'tarar bu tun,  
Yurtimning tonglari olmoqda bu kun.  
Beg'ubor quyoshi portadi butun,  
Diyorum sen o'zing jannatsan go'zal.*

**Dildora MURODOVA,**  
**tumandagi 1-bog'cha-gimnaziya o'quvchisi, «Kamalak» sardori:**

-Kelajakdagi orzuim - huquqshunos bo'lish. Bunga hozirdanoq jiddiy tayyorgarlik ko'rayapman. Ingliz tilini chuqur o'rganayapman. Men ham «Nihol» to'garagiga muntazam ravishda qatnashaman. Bu yerda olayotgan bilimlarimiz, o'tkazilayotgan turli xil qiziqarli tadbirlarimiz biz uchun bir maktab bo'lmoqda. She'rlarim viloyat,

respublika nashrlarida chop etilmoqda. Tinmay ijod qilsam deyman.

*Bolalaracha qalbimda,  
Yashaydi ming bir tuyg'u.  
Men poklikka intilib,  
Ulm izlayman mangu.*



**Shohista QALANDAROVA,**  
**«Nihol» to'garagi a'zosi, tumandagi 1-maktab o'quvchisi. She'rlari tuman, viloyat gazetalarida chop etilgan:**

-Jurnalist bo'lishni qanchalik orzu qilishimni bilsangiz edi. Nazarimda ular go'yo bir mo'jizakor olamni yarata olish qudratiga ega insonlardir. To'garagimizda iqtidorli yoshlar talaygina. Har bir mashg'ulotimiz bahs-munozaralarga boy o'tadi.



Muborak opamlar har birimizga erinmasdan astoydil yo'l-yo'riq ko'rsatadilar. Ularning g'amxo'rliqi, jonkuyarligidan juda xursandmiz.

*Finiq, zilol suvlarga,  
Oqizaman kulcha non.  
Ergashgancha yillarga,  
Ketib borar bolajon.*

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi «Nihol» to'garagi a'zolarining fikrlarini tinglarkansiz, iste'dod egalari yetishib kelayotganiga amin bo'lasiz. Ana shunday to'garaklar ko'plab tashkil qilinsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

**Tahririyatdan:**

*Aziz bolajonlar! Siz istiqomat qilayotgan tuman, mahalla, maktab qoshida bugungi kunda qanday to'garaklar faoliyat olib bormoqda? Ularda nimalarni o'rganayapsiz? To'garak rahbarlarinigiz, ijodkor tengdoshlaringiz haqida bizga albatta yozib yuboring. Maktublaringizni kutamiz.*



# SAROBGA AYLANGAN ORZU

(Hikoya)

Muyassar opaning turmush o'rtog'i barvaqt olamdan o'tdi. Ko'zining oqu qorasi o'g'li Iskandar bilan yolg'iz qolgan opa umrini unga bag'ishlashga qaror qildi. Farzandini hech kimdan kam qilmaslik uchun bir necha joyga ishga kirdi. Kechani kecha, kunduzni kunduz demay, astoydil mehnat qildi. O'zi yemay, yedirdi, kiymay kiydirdi...

Har bir xohishi bajo bo'laverganidanmi, Iskandar biroz erkaroq bo'lib o'sdi...


-Oyi, menga pul tashlab keting, bugun kinoga tushmoqchiman,-

deb qoldi bir kuni hali o'rnidan ham turmagan Iskandar.

-Ertaga boraqolgin, bugun bizga maosh berishadi. Senga kechqurun beraman,-dedi onasi.

-Yo'q, menga bugun kerak!

-Unday bo'lsa, peshinda ishxonamga boraqol, pul beraman,-degancha shoshilib chiqib ketdi onasi.



Iskandar peshingay aqin uyqudan turdi. Mazza qilib nonushta qilgach, bir do'sti bilan onasining ishxonasiga otlandi. Ne ko'z

bilan ko'rsinki, onasi kattakon binoning pollarini yuvib yuribdi. Onasini biror rahbar lavozimida ishlaydi, deb o'ylab yuradigan

Iskandar hayratdan qotib qoldi. Onasini o'rtog'iga tanishtirishga ham or qilib, uni tashqariga chiqarib yubordi. Yo'lakdan o'tib ketayotgan bir bolakayni yoniga chaqirib:- Huv anavi ayolning yoniga borgin-da, o'g'lingizga pul berarkansiz, degin,- debdi.

Muyassar opa pulni berib yuboribdi-yu, yoniga kelishga ham or qilib, sal narida turgan o'g'liga uzoq tikilib qolibdi. Iskandar esa pulni olib, orqasiga o'girilganча ketib qolibdi...

Shu kuni Muyassar opa qalbida ardoqlab kelayotgan tongday oppoq orzulari sarob ekanligini tushunib yetibdi. Ne mashaqqatlar bilan boqayotgan, o'qitayotgan o'g'lining kelajagidan umidini uzibdi.

Yulduzoy OTABOYEVA,  
Andijon viloyati,  
Andijon tumani.

## SICHQONVOYNING O'FMISHI

Fayyonga aytor Sichqon,  
Hayvonlarni bezdirdi.  
Uni qutlab barchasi,  
G'azabini sezdirtdi.

Sichqonvoy juda chaqon,  
Futolmadi arslon.

Juda epchil bo'lsa ham,  
Futolmas hatto quyon.

Majnun chaqon bo'lsa ham,  
Futolmas yugursa ham.

Bir-birin zap ko'yishdi,  
Acir holdan toyishdi.

Uni ushlamoq uchun,  
Kashf qildilar bir qopqon.

Ozroq pishloqdan qo'yib,  
Surdilar uya tomon.

O'ljani ko'rib sichqon,  
Inidan chiqdi shu on...

Hayvonlar ushlashibdi,  
So'ng rosa mushlashibdi.

Shu-shu u hayvonlarni,  
Zor qilmish qorasiga.

Chunki u qochib qolgan,  
Odamlar orasiga.

Muyassar ILHOMOVA,  
poytaxtdagi 228 - maktabning  
8 - «G» sinf o'quvchisi.

## NEGA QORA BOLISH, QIZIL KO'RPACHA?

Shayboniyxon Xurosonni bosib olgandan so'ng, Kamoliddin Behzodga suratini chizishni buyuradi. Shunda Kamoliddin: «Ot ustida qilich ushlab turgan suratingizni chizishim mumkin. Lekin sizning sarkarda ekaningizni hamma biladi. Shuning uchun sizni qizil ko'rpacha ustida, qora baxmal bolishga suyanib o'tirganingizni chizgaymen», debdi. Xon rozi bo'ladi. Shunda Behzod Shayboniyxonning xizmatkorlariga shohni qip-qizil ko'rpacha ustiga o'tkazishini, suyanishiga qora baxmal bolish qo'yishni, beliga ingichka oltin kamar taqishni, oldiga oltin muqovali kichik daftar, qalam va siyohdon qo'yishni buyuribdi. Xizmatkorlar u aytgan hamma narsalarni muhayyo qilishibdi. Shundan so'ng, Behzod xonning suratini chizibdi.

**Savol:** Ayting-chi, Behzod xonning suratini chizishda nega aynan qizil, qora va tillarang bo'yoqlardan foydalangan?

Dilshod GAFUROV,  
Toshkentdagi 169 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.

## TOPISHMOQLAR

Filimiz ustunlari,  
O'n og'a-ini bari.

Bilasizmi, bolalar,

Ular ... (Siz, turkumlari)



Kecha-kunduz bir sohib vaqt,  
Yo'l yuradi to'xtamay...

Gapni-gapga ulayman,  
Veganing qilgum hazm.

Kuchingga kuch qo'shaman,  
Nomimini ayt, Mirazim...

(Choy)

O'rnim uyning to'rida,  
Noz-ne'matga to'laman.


Davralarning ko'rkiman,  
Men ... bo'laman.

(Dasturxon)

Men ham qo'yo onaman,  
Bolalarim juda ko'p.

Uy-ro'zjor deb yonaman,  
O'rdakka o'xshayman xo'p.

Hasan ota OTAQULOV,  
Toshkent viloyati,  
Bekobod tumani, Navoiy shirkat xo'jaligi.



Boshqotirma muallifi:  
Rustam SHORAHIMOV,  
poytaxtdagi 27-maktabning  
7-sinf o'quvchisi.